



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 26-dekabr

VII-4-024-14-0-K/24

Toshkent shahri

2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni 6-, 24-moddalari hamda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-1239/14-son va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrda 01/51-1-26806-son xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda – qonun) ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qonunga muvofiq Toshkent shahar mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **11 108 478 951 ming so'm** va xarajatlari **11 370 711 951 ming so'm** qilib belgilanganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar aksiz (tamaki) solig'i tushumlari hisobidan **262 233 000 ming so'm** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar byudjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjeti va tumanlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i teng ulushlarda;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

d) quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan, yuridik shaxslarning yer solig'i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishincha o'tgan moliya yilining 1 iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

Bunda, daromadlar bo'yicha prognozning bajarilmagan qismi Toshkent shahrining shahar byudjetiga respublika byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo'yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika byudjeti ixtiyorida qoladi.

e) soliqlar Toshkent shahrining shahar byudjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) Toshkent shahriga 12 foizi;

foyda solig'idan tushgan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) Toshkent shahriga 12 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import qilinadigan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan aksiz solig'ining Toshkent shahrida 5 foizi o'tkaziladi.

f) O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika byudjeti va Toshkent shahar mahalliy byudjeti o'rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar:

Bunda, Toshkent shahrida maxsus avtomatlashtirilgan foto va videofiksatsiya texnika vositalari qayd etgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi uchun jarimalarning 50 foizi miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-iyuldagi

PF-112-son Farmoniga asosan tashkil etilgan Toshkent shahrini rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qaroriga asosan tuman hokimliklari tomonidan o'rnatilgan maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi uchun jarimalardan (4014... hisob raqami orqali o'tuvchi) tushadigan tushumlar tuman mahalliy byudjetlarida qoldiriladi;

yig'imlar;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

4. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi:

tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlar (shu jumladan, 3-bandning a), b) va d)-kichik bandlarida ko'rsatilgan daromadlar)ni hamda byudjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag'larning bir qismini tumanlar byudjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli ekanligi belgilansin.

5. Quyidagilar:

2025-yil uchun Toshkent shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2026-2027-yillarga maqsadli mo'ljallar 1-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun tumanlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

Bunda, ajratma me'yorlari bo'yicha Toshkent shahar mahalliy byudjeti bilan tumanlar byudjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Toshkent shahar G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilsin.

6. Toshkent shahar mahalliy byudjeti va tumanlar byudjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi hamda respublika byudjetidan Toshkent shahrining shahar byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori 5-ilovaga muvofiqligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2025-yil uchun Toshkent shahrining shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. Quyidagilar:

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari doirasida hududlar kesimida qat'iy belgilangan soliq miqdorlari 7-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 8-ilovaga muvofiq;

noturar obyektlar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan mutloq miqdorlari 9-ilovaga muvofiq;

turar obyektlar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan mutlaq miqdorlari 10-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. Toshkent shahrining shahar byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **96 011 914 mingso'm** miqdorida belgilansin.

Bunda:

tumanlar byudjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg'armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

Toshkent shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari mablag'larini amaldagi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

10. Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari (B.Xaydarov), Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ganiyev), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov) tuman hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

11. Barcha tuman hokimliklari, mas'ul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushimini ta'minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

12. Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov) tuman soliq organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Arziyev) Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi (A.Razzoqov) Bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi (I.Kadirov) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra Toshkent shahrida mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

15. Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi (A.Tashpulatov), Adliya boshqarmasi (N.Muxammadiyev) Toshkent shahrida byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida to'liq mahalliy byudjetga undirish choralarini ko'rib borsinlar.

16. Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (S.Boyjigitov) tuman hokimlarining birinchi o'rinbosarlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qaroriga asosan qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan jadvallarga muvofiq mahalliy byudjetlarga undirish choralarini ko'rsinlar.

17. Xalq deputatlari tuman Kengashlari hamda tuman hokimlari O'zbekiston Respublikasining byudjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatish tavsiya etilsin.

18. Hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar har yili yil yakuni bilan belgilangan muddatlarda byudjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida xalq deputatlari Toshkent shahar va tuman Kengashlariga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar:

o'z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishini;

byudjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishini;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishini;

byudjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasin.

19. Toshkent shahar hokimining o'rinbosari – Raqamli rivojlanish departamenti rahbari (A.Xen) tumanlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish

choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni byudjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

20. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Toshkent shahar boshqarmasi (I.Naimov) O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi va byudjet tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan olib borilayotgan nazorat ishlarini yanada kuchaytirish choralarini ko'rsin.

21. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova)ga mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

22. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

23. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Taxirov va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari B.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KALANOV RUSTAM
ABDUXAKIMOVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Toshkent shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi hamda 2026-2027-yillarga maqsadli mo'ljallar

T/r	Ko'rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Mo'ljal	
			2026-yil	2027-yil
1	Yalpi hududiy mahsulot mlrd so'm	302 297.0	350 799.0	403 429.2
2	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati foizda	108.0	107.5	107.2
3	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati foizda	106.3	106.7	107.1
4	Xizmat ko'rsatish sohasi o'sish sur'ati foizda (YAXM tarkibida)	117.0	120.9	116.3
5	Qurilish-pudrat ishlarini tashkil etish sur'ati foizda	115.0	111.7	107.0

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi
ming so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Summa
Jami daromad		9 434 889 461
1	Foyda solig'i	1 070 377 680
2	Aylanmadan olinadigan soliq	913 372 800
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 808 769 960
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	0
5	Aksiz solig'i jami	730 115 040
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	<i>54 264 500</i>
	<i>pivo</i>	<i>10 242 300</i>
	<i>benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i</i>	<i>665 608 240</i>
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 593 353 200
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	977 233 170
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	0
10	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	36 908 100
12	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	341 008 511
13	Davlat boji	682 742 000
14	Yig'imlar	460 019 000
15	Jarimalar	820 990 000
16	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	0

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar byudjetidan hududiy byudjet mablagʻlarini
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari**

ming soʻm

T/r	Hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	9 697 122 461
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 639 622 461
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	57 500 000
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	0
1	Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi	42 717 126
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	42 717 126
	shundan:	
	“Yoshlik” sport markazi xarajatlari	610 184
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
2	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi	99 688 650
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	99 688 650
	shundan:	
	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	687 049
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3	Sogʻliqni saqlash boshqarmasi	214 983 022
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	163 083 022
	shundan:	
	Toshkent shahar Sogʻliqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	4 795 421
	Respublika oʻrta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi	0

	filiali	
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sogʻlikni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	51 900 000
4	Madaniyat boshqarmasi	88 424 222
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	88 424 222
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
5	Maʼnaviyat va maʼrifat markazi	3 178 165
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 178 165
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
6	Sport rivojlantirish bosh boshqarmasi	97 300 733
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	97 300 733
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
7	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	2 740 919
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 740 919
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
8	Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi	13 940 815
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 940 815
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
9	Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi	36 852 012
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	36 852 012
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
10	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	0
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0

	shundan:	
	Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	0
11	Transport va yoʻl-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh boshqarmasi	2 085 050
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 085 050
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
12	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi	9 212 061
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 212 061
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	3 553 960 222
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 553 960 222
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	35 000 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	22 000 000
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	14 575 420
	Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasining hududiy boshqarmasi	9 791 907
	Kadastr agentligi Toshkent shahar boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 322 854
	Davlat mukofotlarini toʻlash xarajatlari	9 138 360
	Xalqaro moliyaviy institutlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar boʻyicha toʻlovlar	550 000
	Davlat ichki qarziga xizmat koʻrsatish boʻyicha boshqa asosiy toʻlovlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar boʻyicha asosiy toʻlovlar	0
	Tibbiy sugʻurta jamgʻarmasiga oʻtkaziladigan	2 251 066 348

	transfertlar	
	Jamoat transportining brutto shartnomasi asosida ko'rsatiladigan xizmatlar uchun subsidiyalar	1 200 000 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	2 622 567
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 622 567
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	1 732 693
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 732 693
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	6 371 823
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 371 823
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	8 782 253
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 782 253
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18	Adliya boshqarmasi	15 015 102
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 015 102
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19	Soliq boshqarmasi	184 745 489
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	184 745 489
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
20	Toshkent shahar hokimligi	4 595 154 104

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 589 554 104
	shundan:	
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo'limlari	130 605
	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kursi	597 483
	Zaxira jamg'armasi	96 011 914
	Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	535 326
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	4 130 755
	Davlat ichki va tashqi qarzlarini so'ndirish bo'yicha xarajatlar	911 961 025
	Toshkent metropolitenida aholiga cheklangan tariflarda xizmat ko'rsatish natijasida ko'riladigan zararni qoplash xarajatlari	683 204 725
	Ko'p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta'mirlash va yangilash	165 884 000
	Issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	2 714 928 471
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	5 600 000
21	Obodonlashtirish bosh boshqarmasi	635 342 156
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	635 342 156
	shundan:	
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlari	16 500 000
	Yangi O'zbekiston bog'i saqlash xarajatlari	28 732 187
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
22	(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	10 137 703
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 137 703
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	0
	Axborot-kutubxona markazlari	2 702 838

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	6 562 420
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	Saylov komissiyalari	0
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	Ichki ishlar boshqarmasi	42 091 500
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	42 091 500
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	Mudofaa ishlari boshqarmasi	16 519 720
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 519 720
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	5 210 469
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 210 469
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	Boshqa tashkilotlar	7 190 135
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 190 135
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	1 123 750
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 123 750
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun tumanlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

foiz hisobida

T/r	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq organlari	Shayxontohur tumani	Uchtepa tumani	Chilonzor tumani	Mirobod tumani	Mirzo Ulug'bek tumani	Yakkasaroy tumani	Olmazor tumani	Yashnobod tumani	Sergeli tumani	Bektemir tumani	Yunusobod tumani	Yangiheyot tumani
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
2	Foyda solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
3	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
4	aksiz (pivo)	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
5	benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	41%	38%	0%	30%	8%	10%	15%	10%	0%	20%	14%	23%
			DSB	40%	38%	8%	29%	8%	11%	14%	10%	15%	19%	13%	22%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	59%	62%	100%	70%	92%	90%	85%	90%	100%	80%	86%	77%
			DSB	60%	62%	92%	71%	92%	89%	86%	90%	85%	81%	87%	78%

6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	9%	32%	8%	23%	12%	10%	14%	11%	9%	20%	15%	27%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	91%	68%	92%	77%	88%	90%	86%	89%	91%	80%	85%	73%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	9%	38%	4%	21%	12%	11%	10%	12%	14%	20%	12%	26%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	91%	62%	96%	79%	88%	89%	90%	88%	86%	80%	88%	74%
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tumanlar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	10%	100%	100%
			DSB	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	90%	0%	0%
			DSB	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
9	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			DSB	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga	MRI	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			DSB	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
10	Aylanmadan soliq	Tumanlar byudjetiga		20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga		80%	80%	80%	80%	80%	80%	80%	80%	80%	80%	80%	80%
11	Davlat boji	Tumanlar byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
12	Jarima	Tumanlar byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
13	Yig'imlar	Tumanlar byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Toshkent shahrining shahar byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan va xususiylashtirishdan tushgan pul mablag'lari tuman hamda shahar byudjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Toshkent shahrida mahalliy byudjetiga tushadigan boshqa tushumlar to'liqligicha shahar mahalliy byudjetiga yo'naltiriladi.

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**Toshkent shahar mahalliy byudjeti va tumanlar byudjetlarining 2025-yil daromadlari
va xarajatlarining chegaraviy hajmi hamda respublika byudjetidan Toshkent shahrining
shahar byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori**

ming soʻm			
T/r	Toshkent shahar va tumanlar nomi	Daromadlar	Xarajatlar
	Jami	11 370 711 951.0	11 370 711 951.0
1	Toshkent shahri	9 434 889 461.0	9 697 122 461.0
	Tartibga soluvchi transfertlar	262 233 000.0	
2	Shayxontohur tumani	149 635 000.0	149 635 000.0
3	Uchtepa tumani	161 320 000.0	161 320 000.0
4	Chilonzor tumani	162 968 000.0	162 968 000.0
5	Mirobod tumani	123 116 000.0	123 116 000.0
6	Mirzo Ulugʻbek tumani	166 394 000.0	166 394 000.0
7	Yakkasaroy tumani	103 892 000.0	103 892 000.0
8	Olmazor tumani	159 033 000.0	159 033 000.0
9	Yashnobod tumani	165 145 000.0	165 145 000.0
10	Sergeli tumani	136 066 000.0	136 066 000.0
11	Bektemir tumani	76 793 000.0	76 793 000.0
12	Yunusobod tumani	174 114 000.0	174 114 000.0
13	Yangiheyot tumani	95 113 490.0	95 113 490.0

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

**2025-yil uchun Toshkent shahrining shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g‘azna
hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori
ming so‘m**

T/r	Toshkent shahar va tumanlar nomi	Miqdor
	Jami	38 000 000
1	Toshkent shahri	31 718 000
2	Shayxontohur tumani	548 000
3	Uchtepa tumani	607 000
4	Chilonzor tumani	604 000
5	Mirobod tumani	472 000
6	Mirzo Ulug‘bek tumani	660 000
7	Yakkasaroy tumani	395 000
8	Olmazor tumani	606 000
9	Yashnobod tumani	636 000
10	Sergeli tumani	493 000
11	Bektemir tumani	263 000
12	Yunusobod tumani	685 000
13	Yangiheyot tumani	313 000

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari doirasida hududlar kesimida
qat’iy belgilangan soliq miqdorlari

so‘m					
T/r	Tuman nomi	Oziq-ovqat va nooziq ovqat chakana savdosi	Dehqon bozor-larida q/x mahsulot- lari chakana savdosi	Gazeta, jurnal va kitob chakana savdosi	Maishiy xizmatlar
1	Shayxontohur	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
2	Uchtepa	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
3	Chilonzor	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
4	Mirobod	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
5	Mirzo Ulug‘bek	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
6	Yakkasaroy	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
7	Olmazor	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
8	Yashnobod	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
9	Sergeli	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
10	Bektemir	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
11	Yunusobod	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0
12	Yangiheyot	1 000 000,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Sohalar	Zona	Turar joy uchun (1 kv.m uchun)		Noturar joy uchun (1 kv.m uchun)	
				Koeffitsiyent	Eng kam miqdor (so'mda)	Koeffitsiyent	Eng kam miqdor (so'mda)
1	Toshkent shahri uchun	<u>Jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lov stavkalari</u>	1- zona	2,0	56 000,0	2,0	90 000,0
			2- zona	2,0	56 000,0	2,0	90 000,0
			3- zona	2,0	56 000,0	2,0	90 000,0
			4- zona	1,9	53 200,0	1,9	85 500,0
			5- zona	1,8	50 400,0	1,8	81 000,0

T/r	Tuman nomi	Sohalar	Koeffitsiyent	Eng kam miqdor (so'mda)
1	Toshkent shahri uchun	Yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1,1	944 000,0
		Mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari	1,2	2 046 000,0

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noturar obyektlar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan
mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent	Mutloq miqdor (so'mda)
1	Shayxontohur	1,0	3 300 000,0
2	Uchtepa	1,0	3 300 000,0
3	Chilonzor	1,0	3 300 000,0
4	Mirobod	1,0	3 300 000,0
5	Mirzo Ulug'bek	1,0	3 300 000,0
6	Yakkasaroy	1,0	3 300 000,0
7	Olmazor	1,0	3 300 000,0
8	Yashnobod	1,0	3 300 000,0
9	Sergeli	1,0	3 300 000,0
10	Bektemir	1,0	3 300 000,0
11	Yunusobod	1,0	3 300 000,0
12	Yangihayot	1,0	3 300 000,0

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga
10-ilova

**Turar obyektlar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan
mutloq miqdorlari**

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari
1	Shayxontohur	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
2	Uchtepa	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
3	Chilonzor	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
4	Mirobod	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
5	Mirzo Ulug'bek	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
6	Yakkasaroy	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
7	Olmazor	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
8	Yashnobod	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
9	Sergeli	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
10	Bektemir	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
11	Yunusobod	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0
12	Yangihayot	1,2	1,2	1,2	1,2	1,0